

Ichki Ishlar Xodimlarida Stress Psixologik Muammo Sifatida

Xalmatov Umarbek Muminjonovich¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada ichki ishlar xizmati faoliyatida xodimlarning stress holatlariga tushishi psixologik muammo sifatida o'rganiladi hamda muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: ichki ishlar, psixologik tayyorgarlik, stress, shaxsiy xususiyatlar, fiziologik ritm, moslashish jarayoni.

KIRISH

Ichki ishlar organlari xodimlari xizmat jarayonida va xizmatdan tashqari paytlarda so'zlashish odobiga, muomala madaniyatiga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Har bir so'zni o'z o'rnida qo'llash, fuqarolar bilan xushmuomalada bo'lish xodimning mavqeini yuksaltiradi hamda obro'yini belgilab beradi.

Har bir ichki ishlar organlari xodim fuqarolar bilan samimiy munosabatda bo'lishi, ularning murojaatini diqqat bilan eshitishi, vakolati doirasida ko'rib chiqishi va masalasini hal qilishga intilishi zarur. Fuqarolar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklarni qonunga zidligini tushuntiradi hamda qonunda belgilangan choralarni qo'llashi zarur. Bu kabi holatlarda stressli vaziyatlar ham kuzatilib turishi tabiiy holat hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologik tayyorgarlikning hissiy tarkibiy qismi ustuvor vazifalardan biridir. Uning ahamiyati hissiyotlarning xulq-atvorni tartibga solishdagi roli, ularning aqliy bilim jarayonlariga ta'siri, amalga oshiriladigan faoliyatning sifati va samaradorligi, atrof-muhit o'zgarishiga moslashish bilan belgilanadi. Shuni ta'kidlash mumkinki, ushbu muammoning nazariy rivojlanishi yetarli emas. Insonning faoliyatga psixologik tayyorgarligi bir necha o'n yillar davomida psixologiya fanining turli sohalarida ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelgan. Zamonaviy ilmiy ishlarda alohida sharoitlarda, xususan, ichki ishlar xizmati sharoitida ekstremal tus olishi mumkin bo'lgan faoliyatga qiziqish mavjud (V.I.Varvarov, A.D.Glotochkin, M.I.Dyachenko, L.A.Kandibovich, V.P.Kashirin, M.P. Korobeynikov, P.A.Korchemni, L.N.Kuznesov, T.V.Markelova, A.T.Rostunov, A.M.Stolyarenko, V.V.Sesoev, S.I.Sedin, N.F.Fedenko, V.T. Yusov va boshqalar) [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ichki ishlar organlari xodimlari el-yurt osoyishtaligi posboni sifatida xizmat zaruriyati tufayli chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilan muloqotga kirishganda qaddi-qomatini tik tutgan holda, ochiq chehra bilan ularning bergan savollariga aniq va lo'nda javob berishga intiladi. Ularni qabul qilganda tarjimon taklif etadi.

Xodim fuqarolar bilan suhbatlashishidan oldin o'zini tanishtirishi, xodimning xizmat guvohnomasini ko'rsatish talab etilgan hollarda o'sha zahotitalabi qondirilishi lozim. Suhbat davomida xodim tamaki mahsulotlarini chekishi, biror narsani iste'mol qilishi yoki ularga nisbatan hurmatsizlik deb qabul qilinishi mumkin bo'lgan boshqa nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etmaydi.

Kishi idrok etish, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqelikni bilib qolmay, balki hayotdagi u yoki bu narsalarga qaysidir ma'nodamunosabat bildiradi, ularga nisbatan u yoki bu tarzda hissiyotlar paydo bo'ladi.

¹ Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi



Ehtiyojlarning qondirilishi yoki qondirilmaligi kishida turli xil o'ziga xos kechinmalarni: emotsiya, affekt (hissiy portlash), kayfiyat, kuchli hayajonlanish (stress) holatlarini va his-tuyg'ularni hosil qiladi.

Hissiyot aksariyat hollarda ruhiy jarayonning o'ziga xos ko'rinishi sifatida faqat emotsional shaklda vujudga keladi. Shu o'rinda hissiyot o'zicha emas, balki bilishga intilayotgan, uni egallayotgan shaxsda ma'lum munosabatni namoyon qiluvchi narsalar, hodisalar va harakatlarning alohida xossasi, xususiyati ma'nosida gavdalanadi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, ko'rish, eshitish, hidlash, kinestetik (harakat) sezgi hamda idrokka taalluqli hissiyot muhim ahamiyatga ega. Masalan, ma'muriy hududdagi xonadonlar, jamoaning munosabatlari, xonalar, ish joyi, transport vositalarining rangi va boshqalar taassurotidan vujudga kelgan yoqimli yoki yoqimsiz hissiyot mehnat samaradorligiga, xizmatchilarning kayfiyatiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Xotirjamlik, yoqimli musiqa, shaxslararo iliq munosabatlar, muomala, ahillik muvaffaqiyat kafolati, ijtimoiy taraqqiyot omili hisoblanadi.

Agressiya (*hissiy portlash*) – kishini tez chulg'ab oladigan va shiddat bilan o'tadigan jarayon. U ongning anchagina o'zgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning o'zini o'zi idrok qila olmasligi, shuningdek, shaxsning hayoti va faoliyati o'zgarib qolganligi bilan ajralib turadi. Affekt holatida birdaniga katta kuch sarf qilinishi sababli ham u qisqa muddatli bo'ladi. Agar oddiy hissiyot faqat ruhiy hayajonlanishni ifoda etadi [6].

Hissiy portlash ro'y berganda kishi o'zini nazorat qila olmay qoladi, qilayotgan ishining oqibatini o'ylamaydi va aql-hushini yo'qotib qo'yadi. Tormozlanish miya qobig'ini egallab, kishining tajribasi, uning madaniy va ma'naviy asoslarda mustahkamlangan muvaqqat bog'lanishlarning tarkib topgan tizimini ishlatmay qo'yadi. Masalan, jinoyatchilik olamida kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan odam o'ldirish (JKning 98-modda) yoki kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazishda (JKning 106-modda) affektiv holatlarni kuzatish mumkin. Hissiy portlashdan keyin holdan toyish, majolsizlik, barcha narsalarga befarq munosabatda bo'lish, harakatsizlik, ba'zan esa mudroq bosish boshlanadi. Shu sababli, ichki ishlar organlari xodimlari xizmat faoliyati mobaynida fuqarolar bilan so'zlashishni amalga oshirish jarayonida shaxsning hissiy holatiga katta e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Sababi, inson affektiv holatga tushganida qilayotgan xatti-harakatlarini nazorat eta olmaydi, bu esa xodimning hayoti uchun havfli ko'rinish olishi ham mumkin.

Stress o'zi nima? Stress – inson organizmining tashqi muhitga nisbatan reaksiyasi. Inson miyasi tananing barcha a'zolariga ko'p gormonlarni yuboradi. Natijada yurak tez-tez uradi, qon bosimi oshadi, o'pkaqisqaradi yoki kengayadi, mushaklar taranglashadi. Inson nima bo'layotganini hali to'liq tushunmasidan organizm harakat qilishga tayyor turadi. Stressli vaziyat o'tib ketgach, organizm yuqori tayyorlik holatidan chiqib, me'yoriy faolligiga qaytadi.

Ijobiy va salbiy stress – qiyin va xavfli vaziyatlarga tayyor turishingizga yordam beradigan tabiiy reaksiya. Stress holatida paydo bo'ladigan reaksiya miyangizda boshlanadi. Ijobiy stress tez harakat qilishingizga yoki javob qaytarishingizga imkon beradi. Ma'lum darajadagi stress maqsadingizga erishishga yoki biror ishni yaxshiroq bajarishga, misol uchun, imtihon topshirish, ishga kirish uchun suhbatdan o'tish yoki sport musobaqalarida qatnashishda muvaffaqiyat qozonishingizga hissa qo'shadi.

Lekin davomiy, kuchli yoki surunkali stress sizga zarar keltiradi. Organizmingiz qayta-qayta yoki doimiy ravishda yuqori tayyorlik holatida bo'lsa, siz jismonan, hissan azob chekishingiz va aqliy qobiliyatlaringiz pasayishi mumkin. Xulq-atvoringiz, jumladan, boshqalarga bo'lgan muomalangiz ham o'zgarishi hech gap emas. Surunkali stress tufayli inson ichkilikka ruju qo'yishi, giyohvand moddalarni qabul qilishi, dorilarni suiiste'mol qilishi, me'yoridan ortiq ovqat yeyishi, tamaki chekishi va boshqa yomon odatlarga berilishi mumkin. Bu hatto odam depressiyaga tushishiga, sillasi qurishiga yoki joniga qasd qilish haqida fikrlar kelishiga sabab bo'ladi.



Garchi stress hammaga bir xil ta'sir qilmasa-da, u ko'pgina kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Stress inson tanasining deyarli barcha a'zolariga ta'sir qiladi.

Stress holatida shaxsning xatti-harakatlari keskin tarzda o'zgaradi, qo'zg'alishning umumiy reaksiyasi paydo bo'ladi, harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayishi esa teskari reaksiyaga olib keladi, natijada sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Stress holatida fiziologik o'zgarishlar tashqi tomondan qariyb ko'zga tashlanmasligi mumkin, biroq muammoni yechishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalikni stressning tashqi ifodasi deb taxmin qilish mumkin. Shaxs stress holatida telefon raqamini adashtiradi, vaqtni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati yengil buziladi, idrok ko'lami torayadi va boshqa holatlar kuzatiladi.

Ichki ishlar organlari xodimlari xizmat faoliyati mobaynida stress holatiga ham tushishlari mumkin. Bunday holatlarda, odatda, xodim o'zining hissiy holatini boshqara olmaslik, muomalasida qo'pollik, vaziyatni to'g'ri baholay olmasligi, mantiqiy to'g'ri qaror qabul qila olmaslik, diqqatni to'g'ri taqsimlay olmasligi va shu kabi salbiy ko'rinishdagi ruhiy jarayonlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli har bir ichki ishlar oragnlari xodimio'zida turli ko'rinishdagi noxushliklar, stress va asabiy holatni yuzaga keltiruvchi omillarga qarshi o'zida yetarli psixologik bilimlar, irodaviy fazilatlarini shakllantirishi lozim.

Stress shuningdek moslashuv jarayonida kuzatilishi mumkin. Moslashuvning axborot va hissiy omillari o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud. Fuqarolik hayoti sharoitida shakllangan xizmat haqidagi g'oyalar haqiqatga mos kelmasa, shu bilan birgau yoki bu darajada umidsizlik haqida gapirish mumkin [7].

1. Jismoniy, axborot va hissiy stress.
2. Yaqin kelajakda noaniqlik holatlari.
3. O'zgartirilgan afferentatsiya ilgari hislar va inson psixikasiga ta'sir qilgan stimullar to'plamining keskin o'zgarishi yoki ularning yo'qligi, shuningdekjuda uzoq monotonlik sifatida namoyon bo'ladi.
4. Guruh izolyatsiyasi va harbiy xizmat sharoitida guruh ichidagi ma'lumotlarning kamayishi.
5. Ichki ishlar xizmatchilari o'rtasidagi munosabatlarning qonuniy qoidalarini buzish, bo'limdagi nosog'lom axloqiy muhit.

Kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning yetishmasligi, bu amalga oshirilgan faoliyatdan to'liq qoniqish olish imkoniyatini cheklaydi. Ichki ishlar xizmatining dastlabki davrida belgilangan stress omillarining mavjudligi boshqa tadqiqotchilar tomonidan olingan nazariy va empirik xulosalar natijalariga mos keladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Yuqorida keltirib o'tilgan ushbu xulosalarni Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasixizmatining profilaktika inspektorlariga nisbatan qo'llanilganda shaxs muammosini o'rganishning ikki tendensiyasi (intilish, g'oya, fikr, mayl, tamoyil ma'nolarini anglatadi) birligini kuzatish mumkin bo'ladi. Yuqorida ta'kidlangan fikrlar asosida, xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda, ichki ishlar organlari xodimlari samarali xizmat olib borishlari uchun, xodimlarni psixologik jihatdan sog'lom qilishimiz lozim. Buning uchun esa albatta ushbu psixologiya sohasida yetuk mutaxassislarni topib ichki ishlar organlariga qabul qilib, ichki ishlar organlarida ahloqiy-psixologik bo'linmalarini tashkil qilish lozim deb uylayman.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabr kunidagi "Ichki ishlar organlari tug'risida"gi O'RQ-407-sonli qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2021 yil 21 oktabrkunidagi 400-sonli buyrug'i.



4. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2016 yil 30 may kunidagi 82-sonli buyrug‘i.
5. Mirsobirovich, M. S. (2022). LINGUOPOETICAL CHARACTERISTICS OF COMPARISON OF ISADJAN SULTON USED IN THE NOVEL" ALISHER NAVOI". *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 697-703.
6. Mo‘Minova, T. S. (2022). BADIY ASARDA NUQTAI NAZAR VA XARAKTER IFODASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 768-774.
7. Mirsobirovich, M. S. (2022). LINGUOPOETICAL CHARACTERISTICS OF COMPARISON OF ISADJAN SULTON USED IN THE NOVEL" ALISHER NAVOI". *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 697-703.
8. Mo‘minov, S. (2022). “ЮКСАК МАЪНАВИЯТ–ЕНГИЛМАС КУЧ” АСАРИДА РАҲБАР МАЪНАВИЯТИ, МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИ ҲАҚИДА АЙТИЛГАН ФИКРЛАР. «ФИЛОЛОГИЯНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ» МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН МАТЕРИАЛЛАРИ.
9. Mirsobirovich, M. S. (2022). LINGUOPOETICAL CHARACTERISTICS OF COMPARISON OF ISADJAN SULTON USED IN THE NOVEL" ALISHER NAVOI". *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 697-703.
10. Муминов, С., & Мўминов, Ш. (2022). COMMUNICATIVE BEHAVIOR OF THE LEADER AND ITS STUDY IN THE SOCIOLINGISTIC ASPECT. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА*, 3(4).
11. Mo‘minov, S. (2020). Устоз-шоғирд муносабатида қўлланиладиган бошқарув санъатининг лингвокультурологик тадқиқи. *In the teacher-student relationship applicable management art linguoculturological research*.
12. Mo‘minov, S. (2022). Мулоқот ва замонавий раҳбар маънавияти. *Scienceweb academic papers collection*.

